

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDIT”

KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336:334.75(575.1)

MANSUROV ABDULQUDDUS ABDUVOSIDOVICH

**MOLIYAVIY SALOHİYAT SAMARADORLIGI TAHLILINI
TAKOMILLASHTIRISH**

70411501 – BIZNES TAHLIL

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

I.f.n. dots. Tojiboyeva Sh.

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatiya ishi “_____”
kafedrasida dastlabki himoyadan o`rgan.

_____ -sonli bayannoma “_____” _____ 2023 y.

Kafedra mudiri: Xajimuratov N. Sh.

imzo

sana

Ilmiy rahbar: Tojiboyeva Sh. A.

imzo

sana

Talaba: Mansurov A. A.



imzo

sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakultetida 2023-yil
“_____” _____

№ _____ raqami bilan ro`yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiya ishida korxonaning moliyaviy salohiyatining iqtisodiy mazmuni va mohiyati ochib berilgan, uning tarkibini baholash masalalari yoritilgan. Mazkur dissertatsiya ishida korxonaning amaliy ma'lumotlari asisida moliyaviy salohiyat samaradorligini tahlil qilish usullari, ushbu yo'nalishda milliy va xalqaro amaliyot orasidagi farqlar o'rganilgan. Moliyaviy salohiyat samaradorligini tahlil qilish natijasida xalqaro moliyaviy tahlil amaliyotidan o'zlashitirish mumkin bo'lgan jihatlar va boshqa ilmiy-amaliy takliflar berilgan. Ilmiy ish natijalarini korxonalarining amaliy faoliyatiga tatbiq qilinishi ularning moliyaviy salohiyatini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

***Kalit so`zlar:** moliyaviy salohiyat, moliyaviy salohiyat samaradorligi, v, o'z malag'lari manbalari, uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar, vertikal tahlil, gorizontal tahlil, ichki audit.*

ABSTRACT

In this dissertation work, the economic content and essence of the financial potential of the enterprise is revealed, and the issues of evaluating its composition are highlighted. In this thesis, the methods of analyzing the efficiency of the financial potential based on the practical data of the enterprise, the differences between the national and international practice in this direction are studied. As a result of the analysis of the effectiveness of the financial potential, aspects that can be learned from the practice of international financial analysis and other scientific and practical suggestions are given. Applying the results of scientific work to the practical activities of enterprises allows to increase their financial potential and ensure their financial stability.

Key words: *financial potential, efficiency of financial potential, sources of own funds, long-term and short-term obligations, vertical analysis, horizontal analysis*

MUNDARIJA	
Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro`yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro`yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	11
1.4. Tadqiqotning ob`ekti va predmeti.....	12
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy–nazariy va amaliy ahamiyati	12
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	13
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	14
2.1. Ilmiy-nazariy adabiyotlar sharhi.....	14
2.2. ilmiy-amaliy adabiyotlar sharhi.....	18
III BOB. METODOLOGIYA.....	21
3.1. Tadqiqot olib borilishi va ma`lumotlarni to`plash jarayoni.....	21
3.2. Tadqiqotda qo`llanilgan usullar.....	21
3.3. Tadqiqotning ma`lumot manbalari.....	22
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	24
4.1. Moliyaviy salohiyat samaradorligi tahlilining iqtisodiy mohiyati va nazariy jihatlari.....	24
4.2. Moliyaviy barqarorlikni ta`minlashda korxonalar o`z mablag`lari manbalarini tahlil qilish.....	31
4.3 . Korxonalar moliyaviy salohiyatini oshirishda majburiyatlarni maqsadli boshqarishni tahlili.....	42
4.4. Xalqaro amaliyot bo`yicha moliyaviy salohiyat samaradorligi tahlilini takomillashtirish masalalari.....	59
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR.....	67
5.1. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	67
5.2. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tegishliligi va natijalarning amaliy ahamiyati.....	67
5.3. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalar.....	67
5.4. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalar...	67
Foydalanilgan adabiyotlar.....	79

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida asosiy vazifa – bu izchil iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni mukammallashtirish va diversifikasiyalash, ilg'or texnologiyalar bilan qayta qurollantirishning bosh sharti bo'lgan makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishdir. Makroiqtisodiy barqarorlik – iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevoridir. Zero, O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o'rin egallashi kerak"(Sh.Mirziyoyev 2022) deb aytib o'tdilar.

Hozirgi kunda moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan iqtisodiy subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatining natijalarni baholash masalalariga yangicha, zamonaviy yondashuv uslublari juda ham zarur. Zero, hukumatimiz tomonidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish, auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy faoliyati samaradorligini baholash, moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini takomillashtirish borasida birqancha qarorlar qabul qilinishi ham xo'jalik subyektlarida moliyaviy salohiyat samaradorligi tahlilini o'tkazishni dolzarbligini va amaliy ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi (qarorlar 2015, 2018, 2018, 2020). Demak korxonalarining moliyaviy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mavzu hisoblanadi.

Hozirgi kunda korxonalar barqaror faoliyat ko'rsatishlari uchun hisob-kitob va moliya intizomiga rioya qilishlari lozim. Ushbu holatlarga amal qilmaslik esa ularning moliyaviy salohiyatini pasayishiga, qarzlarni ko'payishiga, korxonaning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib keladi. Moliyaviy salohiyat tahlili faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik subyektlarining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari samaradorligini baholashda katta rol o'ynaydi va korxonalarining moliyaviy faoliyati, boshqaruvi, muammoli savollari ularni yechimi bo'yicha asosiy